

Qashqadaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Qashqadaryo viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tumanlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 19 809,0 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 19 481,9 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 296,3 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 30,8 mlrd so'mni tashkil qildi.

Qashqadaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tumanlar kesimida

2025-yilning yanvar-iyun oylarida tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Chiroqchi (1 907,7 mlrd so'm), Koson (1 848,2 mlrd so'm), Kitob (1 684,7 mlrd so'm), Qamashi (1 524,8 mlrd so'm), Qarshi (1 515,0 mlrd so'm), Yakkbog' (1 455,5 mlrd so'm), Nishon (1 338,3 mlrd so'm), Kasbi (1 308,1 mlrd so'm) va Shahrisabz (1 275,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Qarshi shahar (185,8 mlrd so'm), Shahrisabz shahar (158,7 mlrd so'm) va Dehqonobod tumanini (910,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Qashqadaryo viloyati	19809,0	104,1
Qarshi shahar	185,8	100,6
Shahrisabz shahar	158,7	101,5
G'uzor tumani	1169,4	105,0
Dehqonobod tumani	910,8	105,0
Qamashi tumani	1524,8	103,4
Qarshi tumani	1515,0	102,1
Koson tumani	1848,2	104,5
Kitob tumani	1684,7	104,1
Mirishkor tumani	1320,8	104,8
Muborak tumani	1122,4	106,4
Nishon tumani	1338,3	102,6
Kasbi tumani	1308,1	101,0
Ko'kdala tumani	1083,4	103,4
Chiroqchi tumani	1907,7	106,0
Shahrisabz tumani	1275,4	105,9
Yakkabog' tumani	1455,5	104,6

Tumanlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Muborak (106,4 %), Chiroqchi (106,0 %), Shahrisabz (105,9 %), G'uzor (105,0 %), Dehqonobod (105,0 %), Mirishkor (104,8 %) va Yakkabog' (104,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa tumanlarga nisbatan Qarshi shahar (100,6 %), Shahrisabz shahar (101,5 %), Kasbi (101,0 %), Qarshi (102,1 %) va Nishon (102,6 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 19240,6 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 5202,8 mlrd so'mni (105,3 %), chorvachilik mahsulotlari 14037,8 mlrd so'mni (103,5 %) tashkil qildi.

Tumanlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Chiroqchi (1880,5 mlrd so'm), Koson (1817,2 mlrd so'm), Kitob (1595,0 mlrd so'm), Qamashi (1507,8 mlrd so'm) va Qarshi (1491,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Qarshi shahar (174,6 mlrd so'm), Shahrisabz shahar (158,0 mlrd so'm) va Dehqonobod tumanini (906,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Shahrisabz (106,0 %), Muborak (105,9%), Chiroqchi (105,6 %), Dehqonobod (105,0 %) va G'uzor (104,9 %) tumanlarida qayd etildi. Shahrisabz shahar (101,3 %) va Kasbi (101,1 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 82,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 15,8 % i fermer xo'jaliklariga, 2,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Tumanlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Chiroqchi (1 476,0 mlrd so'm), Koson (1 328,2 mlrd so'm), Kitob (1229,9 mlrd so'm), Qamashi (1157,4 mlrd so'm) va Qarshi (1 009,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Qarshi shahar (157,6 mlrd so'm), Shahrisabz shahar (118,9 mlrd so'm) va Ko'kdala tumanini (766,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Chiroqchi (105,7 %), Nishon (105,6 %), Muborak (105,0 %), Mirishkor (104,7 %), tumanlarida qayd etildi. Shahrisabz shahar (100,8 %), Yakkabog' (101,3 %) va Ko'kdala (101,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 158,8 ming tonna go'sht, 607,1 ming tonna sut, 255,4 mln dona tuxum, 180,7 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 1,1 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni, sog'ib olingan sut – 102,9 % ni, olingan tuxum – 100,3 % ni, olingan qorako'l teri – 105,4 % ni hamda ovlangan baliqlar – 130,9 % ni tashkil qildi.

2025- yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmdan 3,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 95,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 4,0 % i fermer xo'jaliklari, 95,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2025- yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-iyun 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	158,8	103,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5,3	130,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	151,3	102,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,2	123,4
Sut, ming tonna	607,1	102,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	24,3	103,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	577,4	102,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,4	130,7
Tuxum, mln. dona	255,4	100,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	11,9	154,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	169,8	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	73,7	94,6
Jun, tonna	4580	103,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	388	110,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	3952	102,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	240	102,1
Qorako'l teri, ming dona	180,7	105,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	11,3	127,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	144,4	104,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	25,0	101,3
Baliq, ming tonna	1,1	130,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,5	183,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,1	105,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,5	106,3

Shu bilan birga, olingan tuxumning 4,7 % i fermer xo'jaliklariga, 66,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 28,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.



Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 6,3 % i fermer xo'jaliklariga, 79,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 13,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 45,0 % i fermer xo'jaliklariga, 4,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 48,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

**Tumanlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari hajmi**

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Qashqadaryo viloyati	158821	607071	255383
Qarshi shahar	2318	853	7373
Shahrisabz shahar	1428	4492	1761
G'uzor tumani	11502	24130	14384
Dehqonobod tumani	11393	20817	7471
Qamashi tumani	12551	55157	26499
Qarshi tumani	10470	53065	17422
Koson tumani	14319	64732	21290
Kitob tumani	11974	74239	12834
Mirishkor tumani	10676	35638	11707
Muborak tumani	9843	24220	10171
Nishon tumani	9656	29271	8575
Kasbi tumani	8883	55557	11533
Ko'kdala tumani	9034	28850	23110
Chiroqchi tumani	17778	53917	19408
Shahrisabz tumani	9188	36795	34880
Yakkabog' tumani	7811	45337	26966



Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Tumanlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Yakkabog' (589,9 mlrd so'm), Nishon (496,4 mlrd so'm), Koson (488,9 mlrd so'm), Qarshi (482,1 mlrd so'm) va Chiroqchi (404,5 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Dehqonobod tumanini (52,6 mlrd so'm), Shahrisabz shahar (39,1 mlrd so'm) va Qarshi shaharni (17,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Dehqonobod (115,8 %), Shahrisabz (113,2 %), G'uzor (108,0 %) tumanlari, Muborak (107,7 %), Ko'kdala (107,6 %) va Yakkabog' (107,2 %) tumanlarida qayd etildi. Qarshi shahar (100,3 %), Kasbi (98,9 %), va Qarshi (100,4 %), tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Tumanlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	205020	105,2
Qarshi shahar	1426	116,5
Shahrisabz shahar	3071	98,7
G'uzor tumani	11587	104,3
Dehqonobod tumani	838	138,8
Qamashi tumani	15350	104,0
Qarshi tumani	32571	101,5
Koson tumani	19153	104,5
Kitob tumani	18084	105,8
Mirishkor tumani	12186	106,6
Muborak tumani	4991	120,5
Nishon tumani	13081	112,3
Kasbi tumani	7215	103,4
Ko'kdala tumani	5427	113,1
Chiroqchi tumani	19432	105,1
Shahrisabz tumani	16845	106,2
Yakkabog' tumani	23763	102,5

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Qarshi tumani (15,9 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Kitob (17,0 %), Yakkabog' (11,6 %),



Chiroqchi (9,5 %), Koson (9,3 %) va Kitob (8,8 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Dehqonobod (0,4 %), Qarshi shahar (0,7 %) va Shahrisabz shaharda (1,5 %) kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Dehqonobod (138,8 %), Muborak tumani (120,5 %), Qarshi shahar (116,5 %), Ko'kdala tumani (113,1 %), Nishon (112,3 %), Mirishkor (106,6 %) tumanlari, Shahrisabz (106,2 %) va Kitob tumanida (105,8 %) qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025- yilning 1-iyul holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 750,8 ming boshga yetdi, (2024- yilning 1-iyul holatiga nisbatan 1,9 % ga ko'p), sigirlar 568,1 ming boshga (1,9 % ga ko'p), qo'y va echkilar 5011,1 ming boshga (1,4 % ga ko'p), parrandalar 6 591,4 ming boshga (6,2 % ga ko'p) yetdi.

2025- yilning 1-iyul holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1750,8	101,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	121,8	110,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1604,4	101,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	24,6	118,5
shundan sigirlar	568,1	101,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	53,0	110,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	505,6	101,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,5	111,1
Qo'y va echkilar	5011,1	101,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	471,3	109,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4237,0	101,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	302,8	90,0
Otlar	37,2	102,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	6,3	110,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	28,8	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,1	109,8
Parrandalar	6591,4	106,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	493,1	146,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4374,8	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi	1723,5	114,0

tashkilotlar

2025- yilning 1-iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,0 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 9,3 % i fermer xo'jaliklariga, 89,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarining umumiy sonidan 9,4 % i fermer xo'jaliklariga, 84,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 7,5 % i fermer xo'jaliklariga, 66,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 26,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025- yilning 1-iyul holatiga tumanlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Qashqadaryo viloyati	1750753	5011073	6591440
Qarshi shahar	5321	14459	266098
Shahrisabz shahar	13385	12930	107276
G'uzor tumani	90098	587597	525854
Dehqonobod tumani	92514	697149	183573
Qamashi tumani	121206	248763	494830
Qarshi tumani	170932	231905	420058
Koson tumani	188273	607884	493864
Kitob tumani	140790	159086	452270
Mirishkor tumani	101241	457990	559101
Muborak tumani	118830	570733	244439
Nishon tumani	135653	356323	370981
Kasbi tumani	148193	197536	218491
Ko'kdala tumani	74448	212148	397894
Chiroqchi tumani	133223	377881	516042
Shahrisabz tumani	108017	118863	698668
Yakkabog' tumani	108629	159826	642001



V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
B. O'rinov
75 221-44-36 (1710)

Manzil:
Qarshi sh, Mustaqillik shoh
ko'chasi 2b
